

CHAQALOQLIK DAVRINING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Bozorova Ro'zigul Xurramovna*TerDU Ijtimoiy fanlar fakulteti**Amaliy psixologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada chaqaloqlik davrining o'ziga xos jihatlari hamda bu davrda kechadigan turli o'zgarishlar haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, bu davrning boshqa davrlarga nisbatan alohida ko'rinishlari to'g'risida ham mulohaza yuritiladi. Chaqaloqlik davridagi eng muhim jarayonlar psixologik tomondan o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Chaqaloqlik davri, ong, tafakkur, jamiyat, ijtimoiy omil, sotsiogenetik qonun, biogenetik qonun, affekt, effekt, appersepsiya, illuziya, golutunatsiya, regetlik, striotip.

Annotation: This article discusses the unique aspects of infancy and the various changes that occur during this period. It also talks about the special manifestations of this period compared to other periods. The most important processes in infancy are studied from a psychological point of view.

Key words: Infancy, consciousness, thinking, society, social factor, sociogenetik iaw, biogenetic law, affect, effect, apperception, illusion, holitunation, reticence, stereotyping.

Аннотация: В этой статье обсуждаются уникальные аспекты младенчества и различные изменения, происходящие в этот период. Говорится также об особых проявлениях этого периода по сравнению с другими периодами. Важнейшие процессы в младенчество изучаются с психологической точки зрения.

Ключевые слова: Младенчество, сознание, мышление, общество, социальный фактор, социогенетический закон, биогенетический закон, аффе́кт, эффе́кт, апперцепция, иллю́зия, холитунация, скрытность, стереотип.

Odatda bola tug'ilganidan keyingina uning yoshi hisoblanadi, aslida esa, bola ona qornida paydo bo'lganidanoq u nafas ola boshlagan paytdan uni yoshini hisoblash kerak. Chunki, ona qornida bo'lsa ham nafas oladi, yuragi urib turadi. Atrofdagi va ona qornidagi sodir bo'layotgan ruhiy va jismoniy o'zgarishlarni his qila boshlagan bo'ladi. Bola ona qornida rivojlanishi o'rtacha 38-39 haftani tashkil etadi. Homiladorlik davrida ona badan tarbiya bilan shug'ullanishi kerak, mashqlarni homilador bo'lgan davrdanoq yengil harakatli mashqlar orqali boshlash lozim. Bu nafaqat ona uchun, balki tug'ulajak farzandi uchun ham juda foydali hisoblanadi. Chunki homilador ayollarda turli xil gormonlar o'zgarishi sababli ona stress, qo'rquv, vahimada bo'ladi hamda arzimagan narsalarga ham tez xafa bo'lib qolishi mumkin. Ba'zida u turli vahimalarga tushadi, bu holat esa ona hayoti va tug'ulajak bolaga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Homilador ayol ko'proq toza havoda sayr qilishi, badantarbiyaga, shaxsiy gigiyena qoidalarga rioya qilishi zarur hisoblanadi. Sabzavotli ovqatlar iste'mol qilishi, tez-tez

suv ichib turishi va vaqti-vaqtida dam olish kerak. Bu qoidalar sog'lom bola tug'ilishiga ham ruhan va jismonan rivojlanishiga zamin bo'ladi. Bola dunyoga kelgan kunlardan oq tashqi muhitga moslasha boshlaydi. Bunda ko'pgina qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, shu sababli ona va bolaga jiddiy e'tibor berish lozim.

Ular yonidagi insonlar ko'magiga muhtoj bo'ladi. Ularga yetarlicha to'g'ri parvarish va ruhiy-dalda muhim sanaladi. Bola tug'ilib ko'zlarini ochgan kunidanoq yarim soat ichida ona ko'kragini tutib emizishi lozim. Bu bolaga har taraflama foydali hisoblanadi. Bolalar sog'lom bo'lishi uchun ko'proq, iloji boricha ona sutini iste'mol qilish kerak bo'ladi. Chunki, ona suti bolani barcha vitaminlar va immunitet bilan ta'minlaydigan muhim manba hisoblanadi. Ko'krak suti bilan oziqlanadigan bola kasallikka ham kam chalinadi. Kasallikka qarshi immunitet hosil qiladi. Ayniqsa, dastlabki bir haftadagi ona sutida barcha mikroelementlar, judayam foydali vitaminlar mavjud hisoblanadi. Ba'zi onalar bolasi tug'ilganda uni uxlayapti deb, dastlabki sutini sog'ib, to'kib yuboradi, aslida bu katta xato sanaladi. Chunki, bola uxlayotgan davrda ham ona sutidan bahramand bo'layotgan bo'ladi. Tug'ruq jarayonlarini boshidan o'tkazgan ona va bola juda charchagan holatda bo'lganligi sababli ko'p uyquchan bo'lishadi, Bola tug'ilganidan ko'krak sutlari toshib boshlaydi, bu esa, tabiiy jarayon bo'lib, odatda bola tug'ilganda ko'krakka sut tez ko'payadi, ammo bolaga ko'krak tutilsa u ema boshlaydi. Yana sut to'la boshlaydi, bola qancha ko'p emgan sari uning suti shuncha ko'payadi. Agar sut bo'lsa-yu bola emmay, ko'p uxlayversa ona uni sergaklik bilan emizmasa, sutini to'kishga majbur bo'ladi, chunki ortiqcha sutni ko'krakdan sog'ib chiqarib tashlash foydali hisoblanadi. Bu esa ko'krakdagi ba'zi kasalliklarning oldini oladi. Ona sutini to'kmaslik uchun bolani uyqusini ochib tez-tez emizishga diqqat qaratish kerak bo'ladi. Bola qorni to'ygan sari yana tez-tez qorni ochadi va ko'proq emadi. Emgan sari ancha tetik bo'ladi, qorin ochganini sezib yig'laydi va ona ko'kraklarini tozalaydi. Yangi tug'ilgan chaqaloqni bir kunda kamida 8-6 marta emizish kerak. Bolani qancha ko'p yoki kam emizilsa ham farqi yo'q, biroq bola shunga moslashadi. Shu sababli bola jismonan va ruhan sog'lom bo'lishi uchun ko'p-ko'p emizgan ma'qul. Bola tug'ilganidan boshlab toki tashqi muhitga moslashishi uchun qirq kun chilla saqlanadi. Shu sababli, bu davrda nafaqat bola balki ona uchun ham psixik jarayonlarning o'zgarishlari sabab uning tiklanishiga ma'lum muddat kerak bo'ladi. Ona homiladorlik davrida toliqqanligi sababli bir muncha dam olgani ma'qul. Ona organizmi chilla davrida asta-sekin to'g'riqdan tiklanish holatiga o'ta boshlaydi. Bolaning tug'ilganidan unda psixik holatlar ya'ni tashqi atrof-muhit haqida dastlabki tasavvurlar shakllana boshlaydi. Bu esa, bolaning fikrlash jarayonining paydo bo'lishi bilan bog'liq hisoblanadi. Atrofdagilarning unga bo'lgan mehri tufayli u tashqi muhit bilan tanisha boshlaydi. Bola biror-bir narsaga ko'z qorachig'ini qimirlatgan holda uni o'rgana boshlaydi. Unda moslashishlar ya'ni adaptatsiya shakllanadi. Biroq, bolalarning to'g'ri rivojlanishi uchun, ulardan to'g'ri fikr yoki to'g'ri tasavvur paydo bo'lishi uchun ularning har tomonlama tarbiyasi juda ham muhim sanaladi. Chunki, bola tevarak

atrofdagi narsalarga taqlid qila boshlaydi. Chaqaloqda dastlabki ong shakllanar ekan, unda insonga xos xususiyatlar rivojlanishi muhim sanaladi. Shu sababli, sotsiaginetik jihatdan aytadigan bo'lsak, bu bolalar jamiyat bilan birgalikda rivojlana boshlaydi. Zero, biogenetik ta'sir ostida ulg'aygan bola unda turlicha kasalliklar shakllanishiga sababchi bo'ladi. Shuning uchun har qanday ijtimoiy omilning bolalar hayotida, hattoki, ularning chaqaloqlik davrida ham o'rni beqiyos hisoblanadi. Shunday ekan, bolalarning ongi rivojlanishi kerak, yanada yuksak shakllanishi kerak. Chunki, agar ular biror bir yangi narsa bilan tanishmas ekan, yangi bir so'zlarni o'rganmas ekan, ularda rigetlik ya'ni qotib qolish yuzaga keladi. Bu esa, ularning inson bo'lib shakllanishiga to'sqinlik qiladigan dastlabki omil hisoblanadi. Shu sababli, bolalar rivojlanishida ularga ko'proq e'tibor, to'g'ri tarbiya berish eng muhim shartlardan hisoblanadi. Bu orqali ham jismonan to'g'ri shakllanishni o'stirish mumkin, ularning miyasi ham endi shakllana boshlagan bo'ladi. Shuning uchun, ularning miyasida turli xil signallar ya'ni ikkinchi signallar sistemasi rivojlana boshlagan bo'ladi, bu esa, insonning tafakkuri, ongi bilan kechadigan jarayon hisoblanadi, albatta. Shuning uchun, ularning bunday holatda yaxshi rivojlanishi uchun ularga to'g'ri tarbiya muhim hisoblanadi. Ularda stereotip bo'lmasligi kerak, chunki bunday kasallikka uchragan bola o'zini ancha vaqtgacha o'nglay olishi juda ham qiyin hisoblanadi. Ayniqsa, bu holat chaqaloqlik davriga duch kelsa, uning ilk bolalik davriga o'tish jarayoni juda ham qiyin kechadi. Chaqaloqlik davrining boshqa davrlardan farqi shundaki, bu davrda kechadigan jarayon boshqa davrlarga mutlaqo ta'sir etmay qolmaydi, ya'ni bu davrda biror-bir jismoniy zo'riqish yoki biror bir narsadan qattiq qo'rqish, hattoki, o'ta hayajonlanish kabi tashqi ta'sirlar yoki ichki ta'sirlar bolalarning psixikasiga hmda ongiga ta'sir qilgan holda to'g'ri rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shu sababli, chaqaloqlarni tug'ilgan paytidanoq katta e'tibor bergan holda to'g'ri parvarish orqali ularning to'g'ri rivojlanishiga imkoniyat yaratiladi. Bolalarda, ayniqsa, chaqaloqlarda ongning endi shakllanayotgan bosqichi bo'lar ekan, ularda illuziya yoki golitunatsiya kasalliklari yuzaga kelishi mumkin. Bolalarda dastlab idrokning eng sodda ko'rinishlari rivojlanib boshlaydi, ya'ni persepsiya holatlari uchraydi. Undan so'nggina uning yuqori ko'rsatkichi, ya'ni appersepsiya shakllana boradi. Appersepsiya bu inson idrokining yuqori ko'rsatkichi bo'lib, ko'pincha uning darajalari ham mavjud.

Bu

darajalar persepsiya, illuziya golitunatsiya darajalari hisoblanadi. Bunda ko'pincha idrokning yuqori shakli susayishi yoki shikastlanishi orqali yuzaga keladigan illuziya va golitunatsiya kasalliklar yuzga keladi. Chaqaloqlar davrini o'rganish ko'plab olimlar tomonidan olib borilgan. Ular bu haqida ko'plab tadqiqotlar olib borishgan. Olimlar chaqaloqlarning rivojlanishini ham alohida ta'kidlab o'tishgan. Ulardagi har bir kechadigan introvert va ekstrovert harakatlar haqida ham mulohaza yuritishgan. Ularning xarakteri temperamenti, tashqi muhit, ijtimoiy omil, qolaversa, genetik holatlar bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin degan fikrlarni ham aytib o'tishgan. Chaqaloqlik davri boshqa davrlarga nisbatan nozik davr hisoblanadi. Bu davrning

nozikligi shundaki, bu davrda kattalarning chaqaloqlarga nisbatan e'tiborsizligi yoki birozgina noto'g'ri harakati tufayli katta-katta ko'ngilsizliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun, ulardagi bu holatning oldini olish maqsadida ko'plab chora-tadbirlar ko'rilmog'i lozim. Ya'ni ularga chaqaloqlik davridan to ilk bolalik davrigacha yoki o'smirlik davrigacha bo'lgan paytgacha emlash jarayonlari o'tkaziladi. Bunda bolalarning ham ruhan, ham ma'nan rivojlanishiga yordam berish nazarda tutiladi. Bunda ko'pincha, turli xil kasalliklarning oldini olish bo'yicha ko'plab chora-tadbirlar o'ylab topiladi. Shuning uchun, bolalarga bo'lgan e'tibor kelajakka bo'lgan e'tibor ekanligini unutmasligimiz lozim. Zero, chaqaloqlar sog'lom bo'lgan yurtdagina tinchlik va osoyishtalik hamda kelajak yorqin ko'rinishga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. P.I.Ivanov, M.E.Zufarova. Umumiy psixologiya – Toshkent 2015
2. Bo'riyev O. O'zbek oilasi tarixi – Toshkent 1995
3. E.E.G'oziyev. Umumiy psixologiya – Toshkent 2002
4. Fazliddin Ikroruddin. Nikoh va oila risolasi – Toshkent 2004
5. Muhiddinova D & Saydaliyeva M – 2023. Religious beliefses a factor of personal psychological health. International bulletin of engreening and technology.
6. E.E.G'oziyev, Ontogenez psixologiyasi – Nazariy eksperimental tahlili, Toshkent manografiya – 2010
7. O.Sodiqova, S.Madaliyeva, Psixologiya – Toshkent 2010